Mazkur parchada lirik qahramon yorning labidagi may haqida so‘zlaganda, jom, sabuv (may idishi, ko‘zi), shisha, kosa raqs qiladi, deya bayon qilyapti. Hali yorni ko ‘rmay turib, uning labidagi maydan xushini yo‘qotgan lirik qahramon kechinmasiga mayxonadagi jonsiz idishlar o‘yin tushib, o‘z hissiyotini bayon qilar ekan, nimaga Zebo Mirzoning lirik qahramoni yorning nigohiga nikoh bilan bog‘lanib, tushda oshiqdan bo‘sa olib, uni yanada qattiqroq sevib, bu muhabbatini farzand kabi aziz bilmasin. Faqat Zebo Mirzo bu an’anaviy mavzu va g‘oyani yangicha shaklda bergan. Hijron mavzusi Nodirada g‘azal janrida, aruz vaznida, Zebo Mirzoda esa barmoq vaznida berilgan. Shunda ham shoira ko‘plab o‘rinlarda turoqlarni ajratgan holda, ularni alohida misralarga joylaydi. Bunday joylashuv orqali shoira lirik qahramon dardini o‘quvchiga yanada yaxshiroq va teranroq etib borishiga erishgan. Chunki she’rlarda turoqlarni alohida satrda berilishi uni o‘qish jarayonida o‘quvchida tovush va ritmik birliklardagi musiqiylik va mazmunga e’tiborni kuchaytiradi.

Xulosa. Shoira Zebo Mirzo yaratgan lirik subyekt qat’iy xarakter va mavjudlik haqida tushunaga ega, mustaqil shaxs sifatida yuzaga chiqqan. Lekin u sof xayoliy, reallikdan uzulgan emas. Avvalo, shoir lirik subyektini sobiq tuzumdagi insonni milliy va diniy tafakkurdan xoli, ijtimoiy mafkura uchun xizmatchi, hayotni faqat ijtomoiy maqsaddan iborat deb biluvchi shaxs emas, balki tom ma’nodagi kishi sifatida ko‘radi va tasvirlaydi. Shoiraning nazdida, lirik qahramon tabiatning tarkibiy qismi va individ sifatida o‘z ichki kechinmasi, ruhiy dunyosi va faol harakat doirasiga ega. Bu harakat doirasi, birinchi navbatda, umuminsoniy qadriyatlar orasidan o‘tadi. U barcha inson kabi, sevishga, sevgi orqali hayotga muhabbatini izhor qilishga, ruhiy inqiroz va iztiroblar davrida muhabbat timsolida uning zimmasiga yuklatilgan vazifadan adashmaslikka harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdulxayr, Manzar. Timsol tadriji (XV–XXI asr adabiy manbalari misolida). Toshkent, “Yashil yaproq” nashr-matbaa uyi, 2021, 244-bet.

(2). Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 400-bet.

(3). Ekkerman I.P. Gyote bilan gurunglar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016, 632-bet.

(4). Гегел Г.В.Ф. Эстетика. 4-х томах, том № 3, М., “Искусство”, 1968, 683 с.

(5). Гритсанов А.А., Вашкевич А.Б. Постмодернизм. Энциклопедия. Мн., Интерпрессервис, “Книжный дом”, 2001, с. 979–983.

(6). Jorj Oruell. Men nima uchun yozaman. Insoniytaning bugungi ahvoli. Falsafiy-psixologik maqolalar, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2024, 176-bet.

(7). Nodira. Ey sarvi ravon. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992, 228-bet.

(8). Коллектив. Постмодернизм. Энциклопедия. “Интер-сервис”, 2001, 1040 с.

(9). Valiev S. Isro va Me’roj voqeasi tarixi. www://fitrat.uz.

(10). Zebo Mirzo. Nur kukunlari. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2004, 128-bet.

Abdullayeva Barno Umidullo qizi (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti; E-mail: abdullayevabarno789@gmail.com)

GULBADAN BEGIMNING “HUMOYUNNOMA” ASARINING XORIJDA O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya. *O‘rta asr tarixchilari orasida ikki ayol tarixchi manbashunos vizantiyalik malika Komnen bo‘lib, o‘z akasining va otasi Aleksey Komnenning tarixini yaratgan. Bu asar o‘sha asr Vizantiya tarixini o‘zida aks ettirgan o‘lmas asar sifatila tan olingan bo‘lsa, ikkinchisi Movarounnaxr, O‘rta Sharq, Qobul, Hindistonning muayyan bir davridagi murakkab munosabatlarini nihoyatda chuqur fahmlay olgan va bu voqealarni ta’sirchan bayon qila olgan tarixnafis Gulbadan Begimdir.*

Kalit so‘zlar: *Gulbadan Begim, “Humoyunnoma”, Boburnoma, Akbarnoma, temuriylar, Komnen, Hasan Rumlul.*

ОБ ИЗУЧЕНИИ ТРУДОВ “ХУМОЮННОМА” ГУЛБАДАН БЕГИМ ЗА РУБЕЖОМ

Аннотация. *Среди историков Средневековья двумя женщинами-историками были византийская принцесса Комнин, создавшая историю своего брата и отца Алексия Комнина. Хотя этот труд признан бессмертным произведением, отражающим историю Византии того столетия, труды второй, Гульбадан Бегим -учителя истории, глубоко раскрывают сложные отношения Моваруннахра, Ближнего Востока, Кабула, Индии в определенное время и дают впечатляющее описание событий того периода.*

Ключевые слова: *Гульбадан Бегим, "Хумаюннома", Бабурнома, Акбарнама, Тимуриды, Комнин, Хасан Румлул.*

THE PROBLEM OF LEARNING GULBADAN BEGIM'S "HUMAYUNNAME" IN FOREIGN STUDIES

Annotation. *Among the historians of the Middle Ages, two female historians were the Byzantine princess Comnenus, who created the history of her brother and father Alexius Comnenus. While this work is recognized as an immortal work that reflects the history of Byzantium of that century, the second one was able to deeply understand the complex relations of Movarounnahr, the Middle East, Kabul, India at a certain time and gave an impressive account of these events. Gulbadan Begim is a historian princes.*

Key words: *Gulbadan Begum, "Humayunnama", Baburnama, Akbarnama, Timurids, Comnenus, Hasan Rumlul.*

Kirish. Mir Mahdi Hojining "Ayollar haqidagi esdaliklar", "Tazkirat ul-Havatiyn" asarlarida Gulbadan Begimning iste'dodli shoira, deb e'tirof etiladi. "Bilimlar ummoni" qomusiy lug'atdan esa quyidagilarni o'qish mumkin: "Hukmdor Boburning qizi Gulbadan Begim nafaqat o'zining sharqona go'zalligi bilan, balki she'riyatdagi iste'dodi bilan ham taniqlidir". Uning iste'dodiga guvohlik beruvchi "Nishtari ishq" va "Ayollar haqida xotiralar" kitobidan o'rin olgan, fors tilida yozilgan ikki misra she'ri fikrimizni oydinlashtiradi.

"Har pariki o'ro an ba ashaq khud yar nist,
Tu yaqin midanki hech az'umr bar-khur-dar nist".
Tarjimasi:
"Har pari ruxsoriga oshiqi yor yo'q,
Bilki, unga haq yo'lida murod yo'q".

Gulbadan Begimning ilmiy va adabiy merosi juda qimmatli bo'lib, uning o'z vaqtida mashhur bo'lgan va tarqalgan ikki til–chig'atoy va fors tillarida yozilgan she'rlari bugun ham o'rganilmoqda. Bu she'rlar uning insoniyatga, adabiyotga va tarixga qo'shgan katta hissa ekanligini tasdiqlaydi [13;3–7-b.].

Markaziy Osiyodagi antologiyalarda u faqatgina shoira sifatida tanishtiriladi. "Humoyunnoma" asari orqali esa uni Sharq tarixidagi tarixchi ayol sifatida bilish mumkin.

Gulbadan Begimning tug'ilgan yili haqida aniq manbalar mavjud emas, taxminan, u hijriy 930-yilda (melodiy 1523–1524-yillar) Qobulda (hozirgi Afg'oniston poytaxti) tug'ilgan. Onasi Dildor Begim. Boburning katta xotini Mohim Begim qo'lida tarbiyalangan. 1529-yilda Agraga borib, yoshligidan adabiyot va tarixga qiziqqan. Zamonasining barcha bilimlaridan boxabar bo'lgan, fors tilini mukammal o'zlashtirgan, "Boburnoma"ni mutolaa qilgan. Umrining oxirigacha Hindistonda yashagan. Gulbadan Begim va uning ayollar bilan Makkaga safar qilishi, bu davrda uning hayoti va faoliyatidan eng muhim voqealardan biri sifatida tarixda qolgan. Ushbu haj safari Gulbadan Begimning diniy bag'rikengligi va qadriyatlari bilan ham aloqada bo'lgan bir davrni bildiradi. Safar davomida Gulbadan Begim va uning hamrohlari uchun o'rta asr musulmon ayollarining diniy safarlarni amalga oshirishdagi roli va jamiyatdagi o'rni juda muhim edi. Bundan keyin Gulbadan Begimning hayoti haqida batafsil ma'lumotlar kamayib, 1575-yildan keyingi faoliyati haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq bu haj safari uning hayotidagi eng muhim va mazmunli voqealardan biri bo'lib, bu safar nafaqat diniy ziyorat, balki avlodlar o'rtasida o'zaro bag'rikenglik va hurmatni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan deb hisoblanadi.

Gulbadan Begim o'z zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. U jiyani Jaloliddin Akbar podshohning «Firdavsmakon va jannat oshiyon Hazrat haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz, yozingiz" degan ishorasiga muvofiq, «Humoyunnoma" nomli ajoyib va muhim tarixiy asarini yozishga kirishadi. «Humoyunnoma" Bobur podshoh bilan Humoyun podshohning hayot tarzi va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bo'lib, mantiqan "Boburnoma"ning davomi hisoblanadi. Bu asarning muhimligi yana shundaki, «Boburnoma" asaridagi ayrim voqealarning kelib chiqish sabablari mukammal ochib beriladi [13;7-b.].

Gulbadan Begim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uyro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi. Ammo, afsuski, asarning oxirgi qismi o'sha zamonning suronli yillarida yuqolib ketgan.

Humoyun zakovatli, o'z davrining namoyandasi, fan va texnika rivoji homiysi bo'lish bilan bir qatorda, yakka hokimiyat boshqaruvida ayrim xatolarga ham yo'l qo'ygan. Uning zaif tomonidan og'a-inilari o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga uringanlar. Uning hukmdorligiga qarshi uyushtirilgan voqealar silsilasi Humoyunning qiyin ahvoli va taqdirini belgiladi. Shuning uchun Hindistondagi hukmronlik davrida (1530–1541) og'alari tomonidan qilingan xatolar tufayli Qobul akasi Komron Mirzoga (1544), so'ngra

Dehli va Agra (1555) uning fojiali o‘limidan bir necha oy avval boy berilgan edi. Lekin Boburiylar sulolasi tarixida Humoyun davlat arbobi hamda boy hayotiy ish tajribasi egasi sifatida ham munosib o‘rin tutadi. Hukmdor Shekspir epizodlaridagidek, oilaviy, davlatga oid muammolarni hal qilishda yuzaki, dabdabali omadli kunlar bilan, haqiqiy omadsizliklarni birin-ketin, galma-gal kechiravergan Bobur hayotida ham ochlik va qahraton sovuqning beshafqat sinovlariga dosh berish kerak bo‘lgan damlar ko‘p bo‘lgan.

Agar o‘n besh yil davomida otasining toji ortidagi vazifalar, burchlarni ado etish paytida o‘talgan bo‘lsa, hokimiyat tomoshaviy maskan vazifasini o‘tadi. Bu davr ortga tisarilish va umid qilishlar bilan to‘la edi.

Voqealar silsilasining bayoni Gulbadan Begim tomonidan yaratib berilgan [15;10-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sevimli inisi xotirasiga qo‘yilgan marmar kabi nasriy bebaxo yodgorlik islom olamidagi taniqli tarixchi ayollardan Gulbadan Begim nomiga tegishlidir. O‘ttiz yil haramda ko‘rgan-bilganlarini batafsil oqqa tushirgan. Bu asar o‘zining erkin ruhda yozilganligi bilan e’tiborga loyiq.

1587-yilda Akbarshoh o‘z vaziri Abul Fazlga saltanatning to‘liq yilnomasini yozishni buyuradi. Asar puxta bo‘lsa ham, saltanat hayotini tuliq tasvirlay olmagan va Gulbadan Begimning o‘zi ishtirok etgan va eshitgan hikoyalari asosida to‘ldirilib, jam etilgan kitob «Akbarnoma” dunyo yuzini ko‘rdi. Unda Bobur va Humoyun hukmronligi davridagi esdaliklar asosiy o‘rin olgan Abul Fazlning ommaning hikoyalari bilan o‘z asarini yakunlashdan mamnunligi asardagi hikoyalar tasvir va bayonida ko‘rinib turadi, ishonchimiz komilki, asar tarjimasi taassurotli, qiziqarli voqealarga ega bo‘ladi.

Gulbadan Begim uzoq yillar davomida tutqun hayotda yashaganligi ma’lum. Jumladan, asarning birinchi tarjimoni Anetta Susanna Beveridge xonim Gulbadan Begimning kamtarona tabiati to‘g‘risida ishtiyoq bilan yozadi. Gulbadan Begim nafaqat Bobur va Humoyun to‘g‘risida, balki jiyani haqida ham zavq bilan hikoya qilgan [2;7-b.].

Bobur Qobuldan kelgan paytda Gulbadan Begim 5 yoshda edi va bosh vazir bilan shoshilinch ravishda Agra qurshovi haqiqa maslahat qilib yo‘lga chiqqanida, jajji Gulbadan malikalar bilan katta kishiday safarda qatnashadi. Yarim asrdan so‘ng ushbu voqealar ham yodnoma sahifalaridan joy oladi. Bobur hukmronligining so‘ngida va Humoyun boshqaruvi paytida oilaviy tantana, ya’ni Gulbadan Begimning nikoh marosimi bo‘lib o‘tadi. Bu voqea, taxminan, 1537 va 1539-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Voqea bayonidan uzoqlashsak, kuyov Xizr Hujaxon Aymanxonning o‘gli bo‘lib, Sulton Ahmadxonga qarindoshlik rishtasi borligi va Boburga tog‘a bo‘lganligi uchun bu oilaga yaqin kishi sanalgan.

Tadqiqot metadologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Gulbadan Begimning “Humoyunnoma” asarini, o‘zbek va bir qator tarjimalarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish. Asardagi uzilgan yil voqealarini aniqlash, xorij tarjimalari yordamida to‘ldirishlar qilish. Xorij tarjimashunosligidagi “qayta yaratish” tajribasini ommalashtirish, asarning tarixiy asosi va matn hususiyatlarini aniqlash, qo‘lyozma va bosma nashrlarning tasnifini magniy tadqiq qilishdan iborat. Bu borada o‘zbek olimasi akademik S.Azimjonova hamda ingliz professorlari A.S.Beveridj xonim, AQSHlik M.Wheeler Thackston, fransuz Jan Pol Ru, Jan Lui Bakys Grammon tajribasini tadqiq qilish, ularning tajribasi misolida asliyatdan tarjima qilish, kemtik to‘ldirish, manbashunoslik bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishdir.

Tahlil va natijalar. Akbarning eslashicha, onasi Hamidabonu va Gulbadan Begimlar tarbiya borasida bir maqomga ega edilar. 1557-yilgi sarguzasht dengiz voqeasi bilan bog‘liq bo‘lgandi. 1575-yili haramdagi ayollar bilan Gulbadan Begim haj safariga otlanib, 1582-yil qaytib kelishayotgan paytda Adan dengizida kemalari cho‘kib ketadi, ayollar qutqarib qolinadi, bu ishlar Murod III farmoniga binoan uyushtirilganligi uchun unga tegishli jazo beradilar.

Yigirma yil davomida Gulbadan Begimning hayotlik davrida Akbar va uning o‘g‘li Salim, bo‘lajak Jahongirning kelgusidagi taqdiri haqida barcha saroy ayollari kabi qayg‘uradi. Unga diniy a dunyoviy tarbiya berishga intiladi. Gulbadan Begim asarida Humoyunning Hindu vodiysida asirga tushib qolganligi haqida ham yozadi.

Per Pifaretti tarjimasi orqali yana to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lamiz. Haydar Mirzo Kashmirni olish yo‘lida kurashgan va 1539–1540-yillarda Humoyunni jangga chorlaydi, Safaviy yilnomachilardan Hasan Rumlul ma’lumotiga ko‘ra, Humoyunning Erondagi faoliyati va shoh Tahmasp yordamida Qandahorni olganini bilib olish mumkin [14;7-b.].

Nihoyat, bir asrdan so‘ng, Xuroson Hindistonga qo‘shib olindi va bu haqda fikrlar ham yilnomada mavjud. Gulbadan Begim asarda ko‘plab antroponim, toponim va texnik atamalarni ishlatadi va bu so‘zlar uning tabiiy hayotini haqqoniy tarzda aks ettirishga hissa qo‘shgan. Biz forscha va turkcha matnlarga duch kelamiz. Bular inglizcha tasvirlangan geografik joy nomlariga aralashib ketgan. To‘plam xarakteriga ko‘ra, ma’no orqali barcha ma’lumotlarni to‘liq va avvaldan bilib olish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin.

Biz hind, turk va fors tillarida uchraydigan «ayn» tovushini belgilashda apostrofdan foydalandik. Arab alifbosidagi boshqa harflar bu tilda o‘zining fonetik xislatini yo‘qotgan.

Nihoyat, matnlarni boblarga, so‘ng satrlarga va sarlavhalarga bo‘lib, mukammal o‘rganganimizda, asar g‘oyat chuqur yozilganiga ishonch hosil qildik. Ma’lumotlar asarning so‘ngida guruhlab, indeks, bibliografiya tarzida qo‘yilgan.

Temuriylar yurtida Bobur va uning qizi Gulbadan Begim hayoti haqida chuqur bilimga ega, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining sobiq rahbari, Boburning va uning qizi Gulbadan Begim hayoti va adabiyoti bilimdoni Sabohatxonim Azimjonova tomonidan “Humoyunnoma”ning chop qilinishi katta voqea bo‘ldi.

Gulbadan Begimning bu nodir asari 1555-yil voqealari bayonida uzilib qolgan. “Humoyunnoma"-ning qolgan qismi hanuzgacha topilgan emas. Sabohat Azimjonovaning shahodat berishicha, Hindiston, Pokiston, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlardagi qo‘lyozmalar xazinalariga qilingan murojaatlar, Sharq va G‘arbning yirik sharqshunos mutaxassislari va davlat arboblari bilan olib borilgan yozishmalari haligacha natija bergan emas.

“Humoyunnoma” Zahiriddin Muxammad Bobur hayoti va faoliyati hamda yashagan davr muammolarini qiyosiy o‘rganish uchun katta ilmiy ahamiyat kasb etilishiga qaramay, tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilgan. Bu asar birinchi marta Hindistonda hind olimi “Boburnoma” tarjimoni Rashid Axtar Nadvi tomonidan 1870-yili fors tilidagi aslidan urdu tiliga tarjima qilingan [8].

1902-yilga kelib Londonda ingliz sharqshunosi A.S.Beveridge xonim tomonidan fors tilida yozilgan nusxasi va asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasi hamda 40 sahifalik so‘zboshi bilan birgalikda nashr qilinadi [1;35-b.]. Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma 83 varaqdan iborat bo‘lib, qolgan qismi yo-qo‘lgan. Ingliz Olimi Charlz Ryu bu nusxani Britaniya muzeyida saqlanib qolgan jahondagi yagona nusxa, deb hisoblaydi.

1980-yilga kelib ingliz adibasi Margaret Rumer Godden ham A.S.Beveridge xonimning yo‘lidan borib, Gulbadan Begimning hayoti va faoliyati haqida qiziqarli ilmiy-adabiy uslubda «Gulbalan” asarini yaratdi, U o‘z asarida tarixiy voqealarni o‘ziga xos talqin va mahorat bilan aks ettirgan. 2007-yil “Sharq” nashriyoti mazkur asarni Xolida Sufiyeva tarjimasida chop etdi [11].

«Humoyunnoma” dastlabki ma’lumotlar 1984-yil “Sharq biograflari lug‘ati”ga kiritilgan bo‘lib, to‘rt satrdan iborat. Keyinchalik, 1896-yilga kelib, Samubek tomonidan Konstantinopolda nashr qilingan “Qomus al-a’lam”da nisbatan to‘liqroq ma‘lumot berilgan [2].

U yozib qoldirgan “Humoyunnoma” Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati hamda u yashagan davr muammolarini “Boburnoma” bilan qiyosiy o‘rganish uchun katta ilmiy ahamiyat kasb qilishiga qaramay, tadqiqotchilar tomonidan yetarli o‘rganilmagan. Bu kitob hind, urdu hamda 1902-yilda Londonda, ingliz sharqshunosi Anetta Susanna Beveridge xonim tomonidan fors tilidagi nusxasi, inglizcha tarjimasi va alohida so‘zboshi, maqola sifatida nashr qilingan.

1996-yili UNESKOning maxsus qaroriga muvofiq, Fransiyada professorlar Jan Pol Ru va mashhur sharqshunos Jan Lui Bakys Grammon ishtirokida farang tiliga tarjima qilinib, to‘ldirishlar bilan chop qilingan [14]. “Humoyunnoma”ning fransuzcha tarjimasi fransuz Jan Lui Bakys Grammon, akademik Akmal Saidov, professor Sabohat Azimjanovalarning maxsus ilmiy muqaddimalari bilan boshlanadi.

Ushbu tarjimaga, tarjimon turli salnomalardan olingan parchalar kiritilib, qayta ishlab chiqilgan, asosiy ma’lumotlar Mirzo Haydar esdaliklaridan olingan. Tarjimon ayrim nomutanosibliklarni to‘g‘irlashning iloji bo‘lmaganligi bois, Gulbadan Begim qo‘llagan shakllarni saqlab qolgan. Ushbu nashrda avvalgi nashrdagi nuqsonlar tuzatilib, noanik joylari aniqlangan. 2009-yilda AQSHda W.M.Thackston tomonidan Gulbadan Begimning “Humoyunnoma” asariga qo‘shimcha sifatida Jawhar Aftabachining “Tadhkirat al-vaqii‘at” va Bayazid Bayatning “Tarikh-i-Humayun” asarlari hamda har birining forscha matni va inglizcha tarjimasi nashr etildi. W.M.Thackston tomonidan nashr etilgan “Three Memoirs Of Humayun: Gulbadan Begim's Humayunnama. Jawhar Aftabachi’s Tadhkiratu 'l-waqiat” asari Abul-Fazl tomonidan “Akbarnama”ni tuzishda foydalanilgan o‘rta Humoyun tarjimasi o‘z ichiga oladi va juda qulay qo‘llanma hisoblanadi [2].

Yaponiyada Eiji Mano tomonidan yapon tilida ham nashr qilingan.

Xulosa. Yuqoridagi tarjima orqali yanada to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lamiz. Gulbadan Begim, garchand ko‘plab antroponim, toponim va texnik atamalarni ishlatgani bois, bu so‘zlar uning tabiiy hayotini haqqoniy tarzda aks ettirishga hissa qo‘shgan.

“Tarjima jarayonida bizni qiynagan narsa bu turkcha matnlar bo‘ldi. Bunda inglizcha tasvirlangan geografik joy nomlariga aralashib ketgan. Arab mutaxassislari bilan ham muloqot qilishga to‘g‘ri keldi.

Shu bois matnlarni boblarga, so‘ng satrlarga va sarlavhalarga bo‘lib o‘rganganimizda, asar g‘oyat chuqur yozilganiga ishonch hosil qildik”, deydi tarjimon. Ayni shu fransuz tiliga ag‘darilgan tarjima O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining sobiq rahbari Sabohat Azimjonova hamda fransuz olimi Jan Luyi Bakye Grammonlarning maxsus ilmiy muqaddimalari bilan boshlanadi [7].

O‘ylaymizki, ushbu tarjima boburiylar sulolasining benazir vakilasi Gulbadan Begim haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

(1). The History of Humayun by Guldabadanbegam. London, 1902.

(2). Three Memoirs of Humayun: Gulbadan Begim's Humayunnama/Jawhar Aftabachi's Tadhkiratu 'l-waqiat. Translation and ed. Whiler M.Thackston., Mazda publisher, 2009, p. 7.

(3). Aftabachi, J. (1972). Private Memories of Humayun. Trans. Major Charles Stewart (Dehli: Idarah-I Adabiyat-I Delli).

(4). Jaffar, S.M. (1974). The Mughal Empire from babur to Avrangzeb. Dehli, Ess Ess Publications.

(5). Lal, Muni. (1978). Humayun. New Dehli, Vikas Publishing.

(6). Banerji, S.K. (1938). Humayun padshah. London, Oxford University Press.

(7). Babur. Zahir ud Din Muhammad. The Babur-nama.trans. Annete Beveridge. New York, AMS Press, 1971.

(8). Gascoigne. Bamber. The great Moghuls. New York, Harper and Row (1971).

(9). Ishwari, P. (1976). The life and Times of Humayun. (p.16). Allahabad, Central Book Depot.

(10). I.Ashfar. Gulbadan banu. Gulbadan-namah (dukhtari-Babur va Khahar Humayun (Tehran, 1383/ 2005, p. 10.

(11). Rumer Goden. Gulbadan. Portraits of a Rose Princess at the Mughal Court, London, Macmillan Press, 1980.

(12). Nadvi. R.A. Humayun-Nama. Lahore, 2005.

(13). Gulbadanbegim Zahiriddin Bobur qizi. Humoyunnoma. Z.M.Boburning o‘g‘li–Humoyun podshohning ahvoli”. S.Azimjanova tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1998, 3–7-betlar.

(14). Gul-Badan baygam. Le Livre de Humayun traduit du person par Pierre Pittareti, edition, etablie, presentee et complete d’extraits de chroniques persanes par jean- Louis Backques-Grammout. Gallimard, UNESCO, 1996, p. 7.

(15). Beveridge, Annette Sussanah. Life and Writings of Gulbadan Begam, University of Toronto Library, 1989, p. 10.

Mavlonova Zarnigorxon Alisher qizi (Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti
e-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.com)

USMON AZIM SHE’RIYATIDAGI KECHINMA TASVIRIDA RANG SIMVOLIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shoir Usmon Azim she’riyatidagi ruhiyatning rang detallari orqali bo‘yoqdor tasvirlanishi, kechinmalar oqimi, adabiyotda rang konseptining birlamchi omil ekanligi, shoir ijodidagi ramziylik, lirik asarda ruhiyat va rang uyg‘unligi kabi jihatlarga e’tibor qaratildi. Lirik matn ruhiga ko‘ra bir xil ranglarning turli ma’nolarni ifodalab kelishi mumkinligini ko‘rsatib berishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *simvolika, kechinma, konsept, rang detali, psixika, ramziylik, kayfiyat, poetik fikr, lirik kontekst.*

Мавланова Зарнигорхан Алишер кызы (Гулистанский государственный университет, 2-й ступень магистратуры; e-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.com)

СВОЕОБРАЗИЕ ЦВЕТОВОЙ СИМВОЛИКИ В ИЗОБРАЖЕНИИ ПЕРЕЖИВАНИЯ В ПОЭЗИИ ОСМАНА АЗИМА

Аннотация*. В данной статье основное внимание было уделено таким аспектам, как красочное изображение психики через цветовые детали в поэзии поэта Османа Азима, поток переживаний, первостепенный фактор концепции цвета в литературе, символизм в творчестве поэта, гармония психики и цвета в лирическом произведении. Была сделана попытка показать, что одни и те же цвета могут иметь разные значения в соответствии с духом лирического текста.*

Ключевые слова: *символика, переживание, концепция, цветовая деталь, психика, символизм, настроение, поэтическая мысль, лирический контекст.*